



XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr

VII-3-021-11-158-K/24

Rishton tumani

Rishton tuman mahalliy budgetining 2024-yil yakuni bo'yicha aniqlangan erkin qoldik mablag'laridan foydalanish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi" 28, 126-moddalari, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni 6, 25-moddalariga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-yanvardagi "Mahalliy davlat boshqaruvi organlari xizmatchilari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2722-sonli, 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi PQ-3042-sonli qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 6-7 may kunlari Farg'on'a viloyatiga tashrifi davomida kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 19-sonli majlis bayonining 18-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Rishton tumani hokimining 2019-yil 27-maydag'i "Rishton tumani hokimligida ishlovchi hodimlarning moddiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash hamda korrupsiyaviy muhitni shakllanishini oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 671-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida va tuman xokimining o'rinnbosari D.Raxmonqulovni axborotini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat xokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-va 24 moddalariga asosan Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining 2024 –yil 23-fevral kungi VI-65-22-11-158-K/24-sonli qarorining 3.2 bandiga quyidagicha o'zgartirish kiritilsin:

-Tuman mahalliy budgetining 2024-yilning daromadlarini oshirib bajarilgan qismidan 37,8 mln so'm va 2024-yil boshqa shakllangan erkin qoldiq hisobidan foydalanilmay qolgan mablaglarning ishlatalmay kolgan qismi 36.0 mln so'm yangi yil bayramini munosib kutib olish maqsadida tuman xokimligi xodimlarini rag'batlantirish uchun jami 73,8 (yetmish uch million sakkiz yuz ming) so'm mablag' tuman xokimligiga ajratilsin.

2. Tuman xokimining bosh hisobchisi F.Aminovga;

-Ajratalgan mablag'lardan samarali foydalanish va uning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash;

-Moliyalashtirish manbasini ochish uchun yangilangan tartibda xujjatlarni iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda g'aznachilik xizmati bo'limiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman xokimning birinchi o‘rinbosari D.Raxmonqulov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi I.Djurayevlar;

-ajratilgan mablag‘larni qonunda belgilangan tartibda o‘tkazib berish tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (N.Gadoyboyevga) to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi birinchi o‘rinbosari D.Raxmonqulov va Xalq deputatlari tuman kengashi Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy isloyotlarni amalga oshirish va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komisiyasiga Z.Axmedovga zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



XOLIKOV BAXODIR
RAXMATULLAYEVICH